



MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING "PADARKUSH" ASARIDA KONNOTATIV
BIRLIKLAR TAHLILI

ANALYSIS OF CONNOTATIVE UNITS IN MAHMUDKHOJA BEHBUDI'S
PLAY "PADARKUSH"

Rayimjonov Sayidolim Madaminjon o'g'li

Oriental Universiteti "Sharq tillari" kafedrasi o'qituvchisi

G-mail: sayidolimr@gmail.com, тел.: (93) 4014943

OrcID raqami: 0009-0007-4270-6342

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy ijodining lingvopoetik jihatlarini, xususan, "Padarkush" asaridagi konnotativ birliklar tahlil qilinadi. Muallif leksik-semantik, morfologik va sintaktik vositalar orqali hosil qilingan konnotativ ma'nolarni tahlil qilib, ularning badiiy matndagi ta'sirchanlik va estetik xususiyat berish o'rinlari yoritildi.*

Kalit so'zlar: *Behbudiy, Padarkush, konnotatsiya, lingvopoetika, morfologik vositalar, sintaktik usullar*

Abstract: *This article examines the linguopoetic aspects of Mahmudkhoja Behbudi's work, particularly the connotative units in his play Padarkush. It analyzes how lexical-semantic, morphological, and syntactic devices convey connotative meanings that enhance the expressive and aesthetic qualities of the literary text. The study highlights the theoretical and practical significance of connotation as a communicative tool in speech and its role in enriching the emotional depth of Behbudi's language.*

Keywords: *Behbudi, Padarkush, connotation, linguopoetics, morphological means, syntactic devices.*

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodining eng muhim jihatlaridan biri – bu xalqning milliy tili taqdiri haqida chuqur qayg'urib, "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi" kabi maqolalar orqali til masalasiga e'tibor qaratganidadir. Hozir kunda adibning tilga oid qarashlari filologlar tomonidan o'rganib amalyotga tadbiiq etib kelinmoqda. Biroq adib asarlari lingvopoetik jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada adibning "Padarkush" asarida uchragan konnotativ birliklar tadqiq qilingan.

Ma'lumki, tilning asosiy vazifasi bu uning muloqotni amalga oshirishdagi kommunikativlik funksiyasini bajarish, ya'ni aloqa-aralashuvga xizmat qilishdir.

Biroq kishilar nutqiy muloqot jarayonida nafaqat fikr almashish balki, borliqdagi voqea-hodisalarga o'z munosabatlarini ham ifoda etishga intiladilar.

Haqiqatdan ham inson borliq hodisalari haqida fikr yuritish ekan, bu hodisalar ba'zi jihati bilan unda turli hissiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu holat, albatta, tilda o'z ifodasini topmay qolmaydi.



Bundan aglashiladiki, til nafaqat fikr almashishga, balki kishilarning turli xil his-hayajonlarini, voqelikka bo'lgan baho munosabatini ta'sirchan ifoda etishga ham xizmat qiladi. Tilning bu xususiyati *emosional-ekspressiv (konnotativ)* belgi bo'lib, nutqiy muloqot jarayonida yuzaga chiqadi.

O'zbek tilshunosligida ushbu masala keng miqyosda o'rganilgan. *Konnotasiya* – til birligining konnotativ ma'no (stilistik, ekspressiv munosabat kabi qo'shimcha ma'no yoki ma'nolarning) ifodasi sanalib, uning asl mohiyati denotasiya yoki denotativ ma'no bilan qiyosan o'rganilganda yuzaga chiqadi.

Konnotasiya denotativ ma'no ustiga qurilib, unga qo'shimcha ma'no (ekspressiv-emosional ma'no) yuklovchi hamda nutq subektining voqelikka baho munosabatini ifoda etishga xizmat qiluvchi tilning semantik-pragmatik aspektidir.

Tilshunoslikda *konnotasiya* tushunchasi bilan uzviy bog'liq, ba'zan bir xil hodisa sifatida qaraluvchi *emosional-ekspressivlik* tushunchasi uzoq yillar davomida stilistikaning obekti sifatida o'rganildi.

Konnotasiyaning nutqiy vaziyat, kontekst yordamida reallashuvchi hodisa ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, u pragmatikaning tadqiqot obekti ekanligini anglab etamiz. Til birliklarining pragmatik xususiyatini o'rganish jahon tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” badiiy asarida quyidagi konnotativ birliklar qo'llangan:

1. **Leksik-semantik vositalar.** Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” asarlarida konnotativ ma'noni hosil qiluvchi bu kabi leksik vositalardan unumli foydalanganligini ko'ramiz. Adib asosiy hollarda leksik birliklarni ko'chma ma'noda qo'llash, ularning sinonimik qatorlaridan o'z o'rnida foydalanish, omonim, antonim so'zlarni estetik qiymat kasb etishga yo'naltirish orqali badiiylarni ta'minlaydi, matnning ta'sir kuchini oshiradi. Misol:

a) *jadida, eski*; Masalan: *Xo'b, xo'b, boyvachcha katta bo'lubdur, Xudo umr bersin, usuli **jadida** maktabigami o'qiydur, yoinki **eski** maktabga?*

b) *mo'ylov chiqarib, alifni tayoq demayturgan*. Masalan: *Inshoolloh, **mo'ylab chiqarib, alifni tayoq demayturgan** o'g'lungiz holini ko'rarmiz va o'qutmaganingiz uchun gunohkor bo'lursiz.*

Tilda ekspressivlikni ifodalovchi vositalar ichida frazeologizmlar o'ziga xosligi alohida turadi. Bu haqda fikr yuritir ekanmiz, A.V.Kunin quyidagilarni bayon etadi: “Frazeologik birliklarning signifikativ, denotativ ma'nolari ichida konnotativ ma'no alohida o'rin egallaydi. Ma'nolarning konnotativ jihatlari frazeologizmlarning potentsial imkoniyatlarini belgilaydi”¹⁴².

¹⁴² Maksumova S.S. Erkin Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi: Filol. fan. nom... diss. – Toshkent: 2012 – B. 61.



2. **Morfologik vositalar.** Badiiy matnda konnotativ ma'noni ifodalashda morfologik vositalarning o'ziga xos o'rni mavjud. Morfologik vositalar ichida konnotativ ma'noni hosil qiluvchi maxsus so'z shakllari, mustaqil va yordamchi so'zlar, maxsus affikslar alohida ahamiyat kasb etadi. Konnatatsiya mavzusida dissertatsiya ishini qilgan S.Maksumova bu affikslarning, asosan, quyidagi turlarga farqlanganliklarini kuzatamiz:

1. Kichraytirish ma'nosini hosil qiluvchi affikslar: *-cha, -choq, -chak, -chiq, -kay* kabilar.

2. Erkalash ma'nosini hosil qiluvchi affikslar: *-gina, (-kina, -qina), -jon, -xon, -oy, -boy, -loq* kabilar.

3. Ulug'lash, kattalashtirish, kuchaytirish ma'nosini hosil qiluvchi affikslar: *-vor, -kon, -don, -on* kabilar.

4. Faxrlanish, hurmat ma'nosini hosil qiluvchi affikslar: *-lar, -im, -miz, -ng, -i, -si*.

5. Kamsitish, kesatish ma'nosini hosil qiluvchi affikslar: *-xo'r, -tilla, -bachcha, -cha, -vachcha*.

Misol: a) – *lar* affiksi. Masalan: *Xush keldilar, taqsir*;

Ushbu gapda qo'llangan *–lar* affiksi ikkinchi shaxs birlikdagi kshi uchun hurmat ma'nosida qo'llangan. Jumlaning asl holati *Xush kelibsiz* tarzida bo'lishi lozim.

b) *voy-voy* kabi takror, undov so'zlar. Masalan: *Oy, voy-voy bolam! Voy boyim, oh, voy u-u-u!*

Yuqorida gapdagi *voy-voy, voy u-u-u* takror-undov so'zlari orqali ma'noni kuchaytirishga xizmat qilyapti.

3. **Sintaktik vositalar.** Shu sohada maxsus tadqiqot ishini olib borgan tilshunos A.Abdullayev sintaktik vositalardan sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabilarning matn ta'chirchanligini ifodalash uchun xizmat qilishini keltirib o'tganlar¹⁴³.

a) *hech kim*; b) *-mi* so'roq yuklamasi. Masalan: *hech kim bir nima demaydirki, bu kamoli nodonlik va dunyodan xabarsizlikdir. Shunday emasmi, boy amaki.*

Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, adib morfologik, sintaktik, leksik-semantik vositalardan konnotativ ma'noni hosil qilishda maqsadli foydalanish orqali badiiy matnning ta'sir kuchini oshirishga erishgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida konnotativ ma'noni hosil qiluvchi morfologik vositalar ichida affikslarga keng o'rin ajratilgan. Adib asarlarida kichraytirish, erkalash, ulug'lash, kattalashtirish, kuchaytirish, faxrlanish, hurmat ma'nosini hosil qiluvchi affikslarning konnotativ vazifa bajarishi kuzatiladi. Mahmudxo'ja Behbudiy asarida *-lar* qo'shimchasi, *fe'l* shakllari affikslari, shuningdek, *egalik* affikslari ham asosiy hollarda konnotativ ma'no ifodachisiga aylanadi. Adib *egalik* affiksining birlik shaklini ko'plik uchun, va

¹⁴³ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б 41.



aksincha, ko'plik shaklini birlik uchun ishlatish orqali emotsional-ekspressivlikni ta'minlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy sintaktik vositalarning turli ko'rinishlaridan, ayniqsa, ritorik so'roq gaplardan, undalmalardan, shuningdek, sintaktik takror va inversiyadan konnotativ ma'noni hosil qiluvchi sintaktik vosita sifatida keng foydalanadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy asarlaridagi konnotativ birliklar adibning til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanganini ko'rsatadi. U tilning leksik, morfologik va sintaktik darajalarida konnotativlik orqali badiiylik va ta'sirchanlikni ta'minlagan. Ushbu jihatlarni chuqur o'rganish, ularni zamonaviy lingvistik yondashuvlar orqali tahlil qilish tilshunoslikdagi dolzarb yo'nalishlardan biridir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Rayimjonov, S. (2025). Mahmudxo'ja Behbudiyning "Amaliyoti islom" asarida qo'llangan arabcha diniy terminlar tahlili // Xorijiy tillar tadqiqi va ta'limi muammolari. 146-149. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14875568>
- 2) Ubaydullaev, A. . (2024). Arabism of Alisher Navoi's work "Nasaimu-l muhabbat". Академические исследования в современной науке, 3(17), 36–39. извлечено от <https://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/15722>
- 3) Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 357 b.
- 4) Богин Г.И. Современная лингводидактика. – Калинин: Калинин. гос. ун-т, 1980. – 61 с.
- 5) Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий Танланган асарлар. Ж.И.. -Toshkent: Академнашр, 2021. –512 б.
- 6) Ўзбек тилининг изоҳли лугати (I жилд). – Тошкент: „Ўзбекистон миллий энциклопедияси“ Давлат илмий нашриёти,. –665 б.